

## TIBBIYOTDA BIOLOGIYA FANINING TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI

**Saydullayev Abduhalim Abdusalim o'g'li**

*Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Chirchiq filiali  
"Tibbiy-biologik fanlar" kafedrasida mudiri PhD*

**Dananova Dinora Xasan qizi**

*Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Chirchiq filiali  
Davolash va Pediatriya fakulteti Pediatriya  
yo'nalishi 104-guruh talabasi  
[dinoradananova518@gmail.com](mailto:dinoradananova518@gmail.com)*

**Anontatsiya:** *Hozirgi kunda tibbiyot sohasida biologiyaning o'rne juda muhim. Biologiya – tirik organizmlarni, ularning tuzilishi, funksiyalari va rivojlanishini o'rganadigan fan. Biologiya tibbiyot bilan chambarchas bog'liq bo'lib, inson salomatligini saqlash va kasalliklarni davolashda asosiy ilmiy poydevor bo'lib xizmat qiladi. Ushbu tezisdagi tibbiyotda biologiya fanining ahamiyati, uni tibbiy amaliyotga ta'siri haqida so'z yuritiladi. Biologiya fani tirik organizmlarni o'rganadigan tibbiyotning asosiy tayanchlaridan biridir. Biologiya fani orqali inson organizmi tuzilishi, ishlash mexanizmlari, kasalliklarning kelib chiqish sabablari va davolash usullari chuqur o'rganiladi.*

**Kalit so'zlar:** *Tibbiyot, biologiya, tirik organizmlar, kasalliklar, mexanizmlar, inson salomatligi.*

Biologiya empirik fanning jonli organizmlarning tuzilishi, funksiyalari, o'zgarishi, kelib chiqishi, evolyutsiyasi va o'lishini o'rganuvchi sohasidir. U turli organizmlarni saralaydi, ularning ishlashini, turlarning paydo bo'lishini, ularning atrof-muhit bilan munosabatlarini tasvirlaydi. Chunki fanda ilgari o'rganilgan dalillar tarixiylik nuqtai nazaridan ma'lum tizimlarga keltiriladi va ularning yig'indisi organik olamning asosiy qonuniyatlarini aniqlashga imkon beradi.

### **Biologiya fanining tibbiyotda tutgan o'rne va ahamiyati**

Biologiya inson organizmi tuzilishini tushunish-anatomiya va fiziologiya biologiyaning muhim tarmoqlari bo'lib, organizm tuzilishi va uning ishlash mexanizmlarini o'rganishga yordam beradi. Genetika va irsiy kasalliklar – genetika tibbiyotda irsiy kasalliklarni aniqlash va davolash uchun muhim ahamiyatga ega. Biokimyo va metabolizm - inson organizmidagi biokimyoviy jarayonlarni tushunish orqali dori vositalari ta'sirini o'rganish va yangi dorilar yaratish imkonini beradi. Mikrobiologiya va immunologiya – kasallik qo'zg'atuvchi mikroorganizmlarni aniqlash va ularga qarshi kurashish, vaksinalar ishlab chiqishda muhim ro'l o'ynaydi.

### **Biologiya fanining tibbiyotdagi innovatsiyalarni rivojlantirishdagi roli**

Zamonaviy tibbiyotning innovatsion rivojlanishi biologiya fanining yutuqlari bilan bevosita bog'liq. Biologiya inson organizmi, uning hujayralari, genetikasi va biokimyoviy jarayonlarini o'rganish orqali yangi diagnostika usullari, davolash texnologiyalari va farmakologik yutuqlarga yo'l ochib bermoqda. CRISPR-Cas9 texnologiyasi-kasallikka sabab bo'luvchi genlarni tahrirlash orqali gen terapiyasi rivojlanmoqda. mrna vaksinalari-COVID-19 pandemiyasida qo'llanilgan Pfizer va Moderna vaksinalari biologik tadqiqotlar natijasida ishlab chiqildi.

### **Biologiya fanining tibbiyotda texnologiyalarni ishlab chiqishdagi o'rni**

Biologiya fani tibbiyotning zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. U inson organizmi, uning genetikasi, hujayralari va biokimyoviy jarayonlarini o'rganish orqali yangi diagnostika, davolash va profilaktika usullarini yaratishga yordam beradi.

**Xulosa:** Biologiya fani nafaqat tirik organizmlarni o'rganish bilan cheklanib qolmay, balki tibbiyot, ekologiya, qishloq xo'jaligi va texnologiyaning rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatmoqda. Uning yutuqlari inson hayot sifatini yaxshilash va kelajakdagi global muammolarga innovatsion yechim topishda hal qiluvchi ro'l o'ynamoqda.